

Bog‘lovchilarining pragmalingvistik xususiyatlariga doir

Usmonov Aslam Qarshiboyevich¹

ANNOTATSIYA

Maqolada bog‘lovchilar pragmalingvistik xususiyati yoritilgan. Bog‘lovchilarning matinda qo‘llanishi orqali yuzaga keladigan pragmatik aktik ma’no misollar asosida ko‘rib chiqilgan va ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bog‘lovchi, pragmatika, uslub, bo‘lak, ma’no, munosabat, sintaksis.

РЕЗЮМЕ

Ключевые слова: союз, прагматика, метод, член предложения, значение, отношение, синтаксис, слово.

RESUMES

The article highlights the lingvopragmatic feature of binders. The pragmatic actualistic meaning that arises through the use of suffixes in the text is examined on the basis of examples and scientifically analyzed.

Key words: conjunction, pragmatics, method, parts of speech, meaning, attitude, concern, syntax, speech.

Har bir fan tarixida yuksalish davri bo‘lganidek, inqiroz bosqichlari ham bo‘lishi muqarrar. Tarixda tillarning rivojlanish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Zamonaviy tilshunoslikda “Pragmalingvistika” mustahkam o‘rin egallayotgan tilshunoslikning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tilshunoslik empirik tahlilni bilishning boshqa g‘oyalari va amallari bilan boyitishga uzoq tayyorgarlik ko‘rdi. XX asr davrda empirizm, fenomenologiya, konstruktivizm kabi falsafiy g‘oyalarni o‘zida jamlagan metodologiyaga asoslangan lisoniy tahlil yo‘nalishlari yuzaga keldi. Ana shunday yo‘nalishlardan biri, albatta, pragmalingvistikadir.[1:10-b.]

¹ O‘qituvchisi, A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti

Til vositalarining pragmalingvistik tabiatini tahlil qilish tilshunoslikning e'tiborga molik masalalaridan biridir. Shu boisdan keyingi yillar o'zbek tilshunosligida lingvopragmatik tahlil asosidagi bir qator tadqiqotlar[2:130-b.] maydonga keldi. Sh.Safarov "Pragmalingvistika" asarida "Pragmatika nisbatan yangi soha hisoblanib, unda tilning undan foydalanuvchilariga bo'lgan munosabati o'rganiladi. Muloqot jarayonida so'zlovchi o'z fikrini bayon qilishda uning oldida ma'lum maqsad turadi. Bu maqsad so'zlovchini tenglovchi tushunish, anglashidan iboratdir. Lison qanchlik ijtimoiy, so'zlovchi va tenglovchi uchun umumiylari, majburiy bo'lsa, nutq ham ular uchun shunchalik umumiylari, majburiy va ijtimoiyidir", -deb takidlaydi.

Axborot almashinuvi jarayonida hech bo'limganda ikki kishi ishtirokchi bo'lishi zarur. Bir ishtirokchining muloqot harakati, albatta, javob harakatini talab qiladi: savol javobsiz qolmaydi, iltimos, rozilik, inkor, tahdid, fikrga munosabatni talab etadi. Nutqiy muloqot jarayonida yuzaga keladigan shaxslararo munosabat obyektsiz bo'lmaydi, chunki subyekt va obyekt o'zaro bog'liq bo'lib ularni ayri holda qo'llab bo'lmaydi. Quyidagi matnga e'tibor qarataylik: — *Olloh shohid, yurt saodati yo'lidagi xizmatlaringiz afg'onlarni baxt yo'liga olib chiqg'ay. — Shunday deng... U holda yoshlaringiz nimani istaydi? — Yoshlarmi? — Tarzi ko'zini amirdan uzib, soqolini siladi. — To'g'risini ayting, qahrimandan cho'chimang. Menga haq gap lozim. — Yoshlar Afg'onistonni mustaqil ko'rishni istaydilar. Qulay fursat o'tib ketyapti, davlatpanoh. — Fursat hali kelgani yo'q. — Fursat almon vakolasi bilan birga kelgan edi. — Shundaymi?.. Fursatni boy bergenimga nima sabab ekan? Qo'rqedimmi? — Yo'q, ulug' amirim, sababi boshqa: yiliga oladiganingiz ikki million to'rt yuz ming rupiy va muhoribadan so'ng berilguchi ellik million rupiy... Amir xona to'ridagi kursi tomon ko'z tashladi. Tarzi aytgan mustaqillikni va ellik millionni talab qilib yozilgan maktub o'sha yerda turibdi. Keltirilgan parchada nutqiy muloqot jarayonida yuzaga kelgan shaxslararo munosabat faqat leksik birliklar bilan yuzaga chiqmayapti. Shaxslararo munosabatning yuzaga chiqishida pragmatikaning o'rganish obyekti bo'lgan birliklarning ham "ulushi" bor. Ya'ni til birliklarining faqat nutqiy muloqot*

vaqtidagina yuzaga keladigan elementar (Nutqiy akt - lingvistik akt, so‘zlovchi nazarda tutgan har qanday elementar ma’no[3:167-b.]) ma`nolari ham ifadalanmoqda. Ma’lumki, bog‘lovchilar gapda qo‘shma gaplar tarkibidagi ayrim sodda gaplarni, uyushiq bo‘laklarni o‘zaro bog‘lashga, sintaktik-semantik jihatdan munosabatga kiritishga xizmat qiladi. Ularning nutq jarayonida o‘rinli, maqsadga muvofiq holda qo‘llanishi vujudga kelishi mumkin bo‘lgan uslubiy g‘alizlikning oldini oladi. Ularning nutqdagi qo‘llanishi esa pragmatik (hosila) ma’nolarning vujudga kelishi bilan bog‘liq.

Muloqot doirasida yuzaga keladigan munosabatlar turli-tuman bo‘lib, ma’lum axborot mazmuniga ega bo‘ladi. Nazariy adabiyotlarda to‘g‘ri takidlanganidek, “Ma’zmun yoki fikr bayon qilishning har qanday usuli bu turlicha kontekstdir, shuningdek, verbal yoki novebal vositalar orqali fikr ifodalash usuli tushunchasi ostida ham kontekst ma’nosi anglashiladi.”[4: c.91]

Pragmatika tilshunoslikning nazariy va amaliy tarmoqlaridan biri sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta’siri bilan namoyon bo‘luvchi kommunikativ niyat bilan bog‘liq tushunchalarni o‘rganadi. Pragmatika nutqiy aktning bevosita matn bilan munosabatini o‘rganadi. Nutqiy akt bilan matn o‘rtasidagi o‘zaro xilma-xil munosabat pragmatikaning asosiy o‘rganish obyekti sanaladi.[5:55-bet] Masalan: *Eronda musulmonlar arabcha o‘zlashmalarni qo‘llashni afzal bilsalar, musulmon bo‘lmaganlar va “fors sof tili jonkuyarlari” sof forscha so‘zdan tuzilgan iboralarni qo‘llashga urinadilar.* Keltirilgan matnda va teng bog‘lovchisi garammatik jahatdan uyushiq bo‘lakni bog‘lab kelmoqda. Shu gapni va bog‘lovchisi ishtirok etgan uyushiq bo‘lakli qo‘shma gap deb uning mazmunini shunday izohlash mumkin: *Eronda musulmonlar arabcha o‘zlashmalarni qo‘llashni afzal bilmoq*, (1- nutqiy ma’no yig‘indisi). *Musulmon bo‘lmaganlar va “fors sof tili jonkuyarlari” sof forscha so‘zdan tuzilgan iboralarni qo‘llashga urinadilar.* (2-nutqiy ma’no yig‘indisi). Gapning 2-nutqiy ma’no yig‘indisidagi va teng bog‘lovchisi birgalik ma‘nosini ifodalagan. Ya’ni, *Musulmon bo‘lmaganlar (bilan birgalikda) va “fors sof tili jonkuyarlari” sof forscha so‘zdan tuzilgan*

iboralarni qo'llashga urinadilar. Bu jihat gapda ishtirok etayotgan bog'lovchinig gap ma'nosiga ta'sirining bir qirrasi.

Bizga ma'lumki, uyushiq bo'laklar sanash ohangi vositasida bog'langanda ba'zan uning o'rniga biriktiruv bog'lovchilarni qo'llash mumkin bo'ladi. Masalan: *Daftар, kitob sotib oldim.* Qiyoslang: *Daftар va kitob sotib oldim.* Uyushiq bo'laklar bog'lovchisiz, intonatsiyaning o'zi bilan bog'lana olganidek, bog'lovchilar yordami bilan ham birikadi.[6:256] Endi e'tiborimizni yuqoridagi gapga qaratamiz. Eronda musulmonlar arabcha o'zlashmalarni qo'llashni afzal bilsalar, musulmon bo'limganlar va "fors sof tili jonkuyarlari" sof forscha so'zdan tuzilgan iboralarni qo'llashga urinadilar. Bu galgi tahlilimizda gapdan va bog'lovchini tushurib (nutqda qo'llamasdan) tahlil qilamiz. *Eronda musulmonlar arabcha o'zlashmalarni qo'llashni afzal bilmoq,* (1- nutqiy ma'no yig'indisi), *Musulmon bo'limganlar, "fors sof tili jonkuyarlari" sof forscha so'zdan tuzilgan iboralarni qo'llashga urinadilar.* (2-nitqiy ma'no yig'indisi).

Bog'lovchining tushurilishi bilan unga bog'liq bo'lgan "bilan birga, birgalikda" kabi ma'no yo'qoldi va uning o'rniga "ajratib ko'rsatish, takidlash" ma'nosi anglashilmoqda. Aslida ham shunday, gapda kelgan uyushiq bo'laklarni alohida olgan holda tahlil qilib ko'ramiz. Gapda bosh bo'lak yani ega uyushgan. Birinchi nutqiy ma'no yig'indisidagi ega *musulmonlar*, ikkinchi nutqiy ma'no yig'indisidagi ega (uyushiq ega) *musulmon bo'limganlar va "fors sof tili jonkuyarlari"* hisoblanadi. Uyushiq egani va bog'lovchisi orqali bog'laganimizdagina "musulmon bo'limganlar va ular bilan birgalikda, musulmon bo'limganlardan tashqari, (alohida) "fors sof tili jonkuyarlari" ham sof forscha so'zdan tuzilgan iboralarni qo'llashga urinadilar" ma'nosi anglashiladi. Aks xolda va bog'lovchisi tushirilsa, gapdagi *musulmon bo'limganlar* birikmasining ma'nosi tarkibida "fors sof tili jonkuyarlari" ham bo'lishi inobatga olingan xolda, *musulmon bo'limganlar* ma'nosini aynan ajratib ko'rsatish ma'nosini anglatib qolishi mumkin. *Musulmon bo'limganlar, (yani) "fors sof tili jonkuyarlari"* kabi. Bu jihat gapda bog'lovchining qanday nutqiy aktni yuzaga keltirayotgani so'zlovchining kommunikativ niyatiga bog'liq. Gap mazmundagi bunday nutqiy

aktni bog‘lovchi yuzaga keltirayotganini anglash, mazmunni idrok etish tinglovchining lisoniy qobiliyati bilan ham bog‘liqdir.

Har qanday til birligi, jumladan yordamchi so‘zlar tarkibiga kiruvchi bog‘lovchilar ham nutq jarayonida pragmatik, hosila ma’no kasb etadi. Aslida bog‘lovchilar qo‘shma gap tarkibidagi ayrim sodda gaplarni hamda uyushiq bo‘lakli murakkab sodda gaplar orasidagi turli xil munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llanuvchi yordamchi so‘zlardir.[7:424] Matn talabi bilan ular xilma-xil pragmatik, hosila ma’nolar ham kasb etishi mumkin. Masalan:

Ertakda laylak va chol haqida so‘z boradi. Gapda *laylak* va *chol* va bog‘lovchisi yordamida teng bog‘langan so‘z qo‘shilmasisidir. Bu qo‘shilmada va bog‘lovchisining tenglovchiga ma’lum bo‘lgan nutqiy aktik ma’nosi *birgalik*, *tenglik* hisoblanadi. Bu qo‘shilma (*laylak* va *chol*) tarkibidagi birliklarning birini aniqlovchi bilan kengaytirib ko‘ramiz. Masalan: Ertakda laylak va uni ovlagan chol haqida so‘z boradi. So‘zlovchinig nutqni bunday shaklda ifoda etishi tinglovchining va bog‘lovchisini yuqorida anglashilgan *birgalik*, *tenglik* aktik ma’noni yuqolishiga olib kelishi mumkin. Endi tinglovchi nutqiy aktik mazmunni *laylak* va *chol* (laylak bilan chol) shaklida emas, balki *laylakni ovlagan chol* shaklida anglaydi. Qo‘shilmalarining mazmuniga bog‘lovchi haqiqtdan ham, ta’sir etgan etmaganligini aniqlash maqsadida yuqoridagi nutqda qo‘llangan so‘z qo‘shilmalarini bog‘lovchisiz tarzda ifodalab tahlil qilamiz. 1) *laylak* va *chol* 2) *laylak* va *uni ovlagan chol*. Birinchi so‘z qo‘shilmasi *laylak*, *chol* tarzida qo‘llanilganda ham (ya’ni ertakda *laylak*, *chol haqida so‘z boradi*) tenglik ma’nosi (kuchsizlanishi mumkin) yoqolmaydi. Ikkinci so‘z qo‘shilmasi *laylak*, *uni ovlagan chol* shaklida so‘zlavchi tomonidan ifodalanishda *tenglik* ma’nosi yo‘q, balki *takidlash* ma`nosini yuzaga keltirmoqda. Va bog‘lovchisining pragmatik ma’nosi yuzaga kelishida faqat nutqiy jarayon bilan emas, balki so‘zlovchining niyati, nutq elementlaridan tinglovchining xabardorligi ham muhim ahamiyatga ega.

Sh.Bobojonov nutqiy ma’noning yuzaga kelishi haqida quyidagi fikirlarni bildiradi: “Nutqiy ma’no muayyan sintaktik qurshovda nutq sharoiti va

so‘zlovchining kommunikativ niyatiga mos ravishda ma’lum bir nutq jarayonidagina yuzaga keltiriladi.”[8:26-b.] Tilshunos bu o‘rinda leksik nutqiy ma’no (sememani nutqiy voqeylanishi) haqida so‘z yuritgan bo‘lsada, bizningcha, bu kabi holatlar barcha nutq birliklariga (shu jumladan pragmatik birliklarga ham) birdek tigishlidir.

Demak, pragmatik ma’no talqinida lison va nutqni izchil farqlash talabi har bir so‘zga xos barqaror lisoniy va o‘tkinchi nutqiy jihatlarni ajratishni taqozo qiladi. Nutqiy hodisalar cheksizlik va rang-baranglik tabiatiga ega bo‘lganligi bois leksikografik talqinlarning obyekti bo‘la olmaydi.

Nutq jarayoni, insonning nutqiy faoliyati uning rang-barang (chunonchi: ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, madaniy va h.k.) ijtimoiy va tabiiy faoliyati bo‘lganligi sababli, pragmatikada nutqiy faoliyat insoniy faoliyatning qolgan o‘nlab qirralari bilan bog‘liqlikda o‘rganiladi. Shuning uchun struktur (sistem) tilshunoslik til tizimini, til sistemasini o‘rgansa, pragmatika diskurs (muloqot, o‘zaro-fikr almashuv, kommunikatsiya, aloqa-aratashuv, so‘zlashuv) tizimini o‘rganadi. Oddiy qilib aytganda, nutqiy muloqotni yaxlit bir tizim sifatida - bu jarayonning barcha lisoniy va nolisoniy omillar bilan uzviy bog‘liqlikda, hamkorlikda o‘rganuvchi fandir. Shuning o‘zi pragmatika nutq va axloqiy, insoniy hatti-harakat, ruhiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan o‘nlab fanlarning kesishish nuqtasida turishidan darak bermoqda.[9:39-b.]

Xulosa qilib aytganda, bog‘lovchilarning pragmatik ma’no xilma-xilligini so‘zlovchi va tinglovchining tushunishi va anglashi faqat ular uchun umumiylasos mavjud bo‘lgandagina amalga oshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. –Б.10.
2. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филолог. фан. д-ридас-си. Тошкент. 2001 йил., Махсумова С. Эркин Воҳидов асарлари лингвопрагматикаси. Тошкент. 2015-йил, 130-б. ва б.
3. Ҳакимов М. Ўзбет прагмалингвистика асослари.- Тошкент: Академнашр, 2013. -176 б.

4. Мыркин И. Я. Текст подтекст и контекст –М.: 1976. №2 с.91
5. Нурмонов А., Ҳакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 4-сон, 55-бет.
6. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. - 256 б.
7. Шоабдурахманов Ш. ва бош. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1-қисм. – Т.: Ўқитувчи, 1980, 424-бет.
8. Қаранг: Бобоҷонов Ш. Семема, унинг нутқий воқеланиши ва изоҳди лугатдаш талқини: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. - Самақанд, 2004. – 26 б.
9. Сафаров Ш., Тоирова Г., Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. Ўқув қўлланма. - Самарканд, СамДЧТИ нашри, 2007. -39 бет.